

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuzyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асая Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

ANALYSIS OF NATIONAL LEGISLATION ON THE PREVENTION OF CRIMES COMMITTED BY MINORS

Khushvaktov Utkir Temirovich

Independent Researcher at the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

E-mail: Xushvaqtovhhh@gmail.uz

Abstract. This article comprehensively analyzes the national legislative system in the field of crime prevention among minors in the Republic of Uzbekistan. The author conducts a scientific and practical analysis of the laws "On the Prevention of Neglect and Delinquency among Minors" (2010), "On Guarantees of the Rights of the Child" (2008), "On State Youth Policy in the Republic of Uzbekistan" (2016), and "On Crime Prevention," as well as the relevant provisions of the Family, Administrative, and Criminal Codes. The results of the analysis reveal that, although national legislation has established legal, social, and preventive foundations for juvenile delinquency, in practice there are shortcomings such as weak interdepartmental coordination, the predominantly control-oriented nature of the prevention system, and insufficient implementation of psychological and social services.

Keywords: juvenile delinquency, prevention, national legislation, children's rights, state youth policy, crime prevention, neglect, abandonment, victimology, family code, social services, interagency cooperation, legal education.

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI

Xushvaqto'v O'tkir Temirovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish sohasidagi milliy qonunchilik tizimi har tomonlama tahlil qilingan. Muallif tomonidan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi (2010 y.), "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2008 y.), "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi (2016 y.), hamda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek Oila, Ma'muriy va Jinoyat kodekslarining tegishli normalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tahlil natijalaridan ma'lum bo'lishicha, milliy qonunchilik voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining huquqiy, ijtimoiy va profilaktik asoslarini yaratib bergan bo'lsa-da, amaliyotda idoralararo muvofiqlashuvning zaifligi, profilaktika tizimining ko'proq nazorat xarakterida bo'lishi, psixologik va ijtimoiy xizmatlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani kabi kamchiliklar mavjud.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, profilaktika, milliy qonunchilik, bola huquqlari, yoshlarga oid davlat siyosati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, nazoratsizlik, qarovsizlik, viktimologiya, oila kodeksi, ijtimoiy xizmat, idoralararo hamkorlik, huquqiy ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N54>

Kirish. Jamiyatda qonun buzilish holatlarini oldini olish sohasida, xususan, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida profilaktika faoliyatining huquqiy ta'minlash borasidagi yangi davr O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29-sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni[1] qabul qilinishi

bilan boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Qonunning maqsadi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

1) O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 63-79-moddasida esa, ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatga yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa; o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkinligi belgilangan[2].

2) O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida zo'ravonlikning turlari uchun javobgarlik belgilovchi normalar mavjud : haqorat (41-modda), bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik (47-modda), voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (474 — modda), vasiylik huquqini suiiste'mol qilish (48-modda), yengil tan jarohati yetkazish (52-modda)[3].

3) Jinoyat kodeksida oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlarga bag'ishlangan alohida bob (5-bob) mavjud bo'lib, unda voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash uchun (122-modda), bolani almashtirib qo'yish (124-modda), farzandlikka olish sirini oshkor qilish (125-modda), voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (127-modda), 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (128-modda), 16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz buzuq harakatlar qilish (129-modda), pornografik narsalarni tayyorlash yoki tarqatish (130-modda), fohishaxona saqlash yoki qo'shmachilik qilish (131- modda) uchun javobgarlik belgilangan[4].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Yuqoridagi tahlillarga asoslanib ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va Jinoyat kodeksidagi ushbu normalar voyaga yetmaganlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy-himoyaviy va jinoiy-preventiv asosini tashkil etadi. Bu kodekslar nafaqat javobgarlikni belgilaydi, balki oilaviy, ta'limiy va ijtimoiy muhitda voyaga yetmaganlarning xavfsizligini ta'minlash uchun huquqiy mexanizmlarni yaratadi. Voyaga yetmaganlar profilaktikasida mazkur kodekslar o'zaro bog'liq holda ishlaydi: a) oila kodeksi – ijtimoiy va tarbiyaviy asos; b) ma'muriy kodeks – profilaktikaning ilk darajasi; v) jinoyat kodeksi – jinoyatchilikka qarshi qonun ustuvorligining kafolati.

Bu tizim bolalar huquqlarini ta'minlashda, zo'ravonlik holatlarini barvaqt aniqlashda va voyaga yetmaganlarning viktinlik holatini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

4) 2016-yilga kelib "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Muhokama. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash sohasida davlatning vazifalari (6–8-moddalar)ga oid normalar voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilikka qarshi ijtimoiy profilaktikaning huquqiy poydevorini belgilaydi. Yoshlarning ta'lim, mehnat va madaniy hayotga to'liq jalb qilinishi ularning deviant (og'ishgan) xulq-atvordan uzoqlashuviga olib keladi.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasi va ma'naviy rivojlanishi (10–12-moddalar)ga oid moddalar jinoyatchilikni bartaraf etishning axloqiy-huquqiy profilaktika mexanizmini ta'minlaydi. Ya'ni, yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat va qonuniylik hissini kuchaytirish orqali huquqbuzarlikka olib keluvchi xatti-harakatlar oldi olinadi.

Yoshlarning bandligini ta'minlash va ishsizlikning oldini olish (13–15-moddalar) ga oid normalarda davlatning ishsiz yoshlarni qayta tayyorlash, malaka oshirish va ishga joylashtirish bo'yicha majburiyatlari ko'rsatilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishsizlik yoshlar jinoyatchiligining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun mazkur moddalar ijtimoiy-iqtisodiy profilaktikaning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligi (17-modda) ga oid modda profilaktika faoliyatidagi idoralararo hamkorlik tizimini mustahkamlaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoshlar bilan ishlashda jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lgan guruhlarni aniqlash va ular bilan individual profilaktik ishlar olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yoshlar huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik (21-modda)ga oid norma yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini ta'minlovchi huquqiy kafolat vazifasini bajaradi. Yoshlarga nisbatan qarovsizlik yoki huquqlarini poymol qilish holatlari o'z vaqtida bartaraf etilsa, ularning deviant xulq shakllanishi ehtimoli kamayadi[5].

Xulosa o'rnida "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni yoshlarning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy himoyasini ta'minlash orqali jinoyatchilikni oldini olishning kompleks huquqiy asosini yaratadi; ta'lim, mehnat va tarbiya sohalaridagi islohotlarni profilaktik samaraga ega mexanizmlar bilan uyg'unlashtiradi; huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari va mahalla tizimi o'rtasida hamkorlikni institutsionallashtiradi.

"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunidagi (2016-yil) kamchiliklar:

qonun yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlanishini belgilaydi, ammo jinoyatchilik profilaktikasi alohida mexanizm sifatida aniq ifoda etilmagan.

yoshlar bilan ishlash bo'yicha idoralararo hamkorlik (17-moddada qayd etilgan) amalda samarasiz, chunki uni muvofiqlashtiruvchi markaziy organ yoki yagona koordinator belgilanmagan.

qonun choralarining samaradorligini baholash uchun indikatorlar yoki hisobot berish mexanizmi nazarda tutilmagan.

yoshlarning "deviant" yoki "huquqbuzarlikka moyil" toifalariga nisbatan profilaktika choralari aniq belgilanmagan.

Takliflar:

qonunda "voyaga yetmaganlar bilan individual profilaktik ish" tushunchasi va uni amalga oshirish tartibini belgilash zarur;

yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish bo'yicha ta'lim muassasalarida majburiy huquqiy tarbiya dasturlarini joriy etish;

mahalla, ta'lim muassasasi va ichki ishlar organlari o'rtasida axborot almashinuvning yagona elektron platformasini yaratish;

qonunga yoshlar psixologiyasi va deviant xulq mutaxassislari ishtirokida ijtimoiy-psixologik monitoring tizimini kiritish.

5) O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asosini belgilaydi. Ushbu qonunning amalga oshirilishi natijasida bolalarning ijtimoiy himoya darajasi oshdi, ta'lim va tarbiya sohasida insonparvar yondashuv qaror topdi hamda zo'ravonlik va qarovsizlikka qarshi tizimli choralar joriy etildi[6].

Natija. Qonunning ayrim moddalari voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi:

3–4-moddalar davlatning bola huquqlarini ta'minlash majburiyatini belgilab, jinoyatga moyillik omillarini kamaytiradi;

14–15-moddalar ta'lim va tarbiya huquqini kafolatlab, o'smirlarda axloqiy va huquqiy ongini shakllantiradi;

22–23-moddalar bolani zo'ravonlik va qarovsizlikdan himoya qilish orqali ijtimoiy profilaktika vazifasini bajaradi;

17–18-moddalar bolani mehnat va ekspluatatsiyadan muhofaza qilish orqali huquqbuzarlik muhitining oldini oladi;

27–30-moddalar bolalar bilan ishlovchi davlat organlari hamkorligini mustahkamlab, profilaktikaning institutsional tizimini yaratadi;

31-modda bolalar huquqlarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilab, ota-onalar va muassasalar mas'uliyatini oshiradi.

Qonun voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olishda huquqiy, tashkiliy va profilaktik asos bo'lib xizmat qiladi. U ta'lim, tarbiya va ijtimoiy himoya sohalaridagi davlat kafolatlari orqali bolalarni huquqbuzarlik muhitidan himoya qilishda muhim huquqiy poydevor vazifasini bajaradi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun (2008-yil)idagi kamchiliklar:

qonun ko'proq deklarativ xarakterga ega bo'lib, unda bolalar huquqlarining umumiy kafolatlari bayon etilgan, ammo jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha aniq amaliyot mexanizmlari ko'rsatilmagan;

bolalarga nisbatan zo'ravonlik yoki qarovsizlik holatlarini aniqlash va ularni monitoring qilish bo'yicha yagona milliy mexanizm mavjud emas.

27–30-moddalar hamkorlikni nazarda tutsa-da, amalda ma'lumot almashinuvi va tezkor chora ko'rish tizimi yetarlicha ishlamaydi.

31-modda asosan javobgarlikni belgilaydi, lekin qayta tarbiyalash yoki reabilitatsiya choralari bo'yicha norma yo'q.

Takliflar:

qonunda bolalarga nisbatan zo'ravonlik va qarovsizlik holatlarini aniqlash, xabar berish va chora ko'rishning yagona tartibini belgilash lozim;

bolalar huquqlarini himoya qilishga doir organlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash uchun milliy koordinatsiya markazi tashkil etish;

ota-onalar uchun majburiy huquqiy va psixologik maslahat kurslari joriy etish (masalan, qarovsizlik holatidan keyin);

bolalarga oid huquqbuzarlik holatlari bo'yicha jamoatchilik nazorati mexanizmlarini (ombudsman, NNTlar) kuchaytirish.

6) O'zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni *voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish* sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi va quyidagilarni belgilab beradi[7]:

“Voyaga yetmagan” (18 yoshga to'lmagan), “nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi” (sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish), “ijtimoiy jihatdan xavfli

ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan/oila", "nazoratsiz", "qarovsiz", "g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar" kabi atamalarga aniq ta'rif berilgan;

nazoratsizlik, qarovsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabablarni bartaraf etish, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish, qonunga itoatkorlikni shakllantirish;

ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarning ta'lim vaqtida ko'ngilochar joylarda bo'lishiga, spirtli ichimliklar iste'mol qilishiga va huquqbuzarlik sodir etishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, tungi vaqtda ularsiz ko'ngilochar joylarda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish sharti;

profilaktikani amalga oshiruvchi organlar jumladan, bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar; ichki ishlar organlari (maxsus bo'linmalar: huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalari, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari); ta'lim organlari va muassasalari; vasiylik va homiylik organlari; sog'liqni saqlash organlari va muassasalari; mehnat organlari; Yoshlar ishlari agentligi hamda ularning vakolatlarini belgilab beradi.

Umuman olganda, Qonun voyaga yetmaganlar profilaktikasining **kompleks tizimini** yaratishga qaratilgan bo'lib, unda turli davlat organlari va oilaning mas'uliyati aniq belgilab berilgan.

"Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunidagi *kamchiliklar*:

qonun asosan ma'muriy-huquqiy yo'nalishda, profilaktika emas, nazorat xarakterida bo'lib, u voyaga yetmaganlar bilan bog'liq holatlarda "jazo" yoki "ma'muriy chora"ni ko'proq belgilaydi, profilaktik ta'lim va psixologik yordam yetarli yoritilmagan;

psixologik va ijtimoiy xizmatlar tizimi zaif, aniqrog'i, profilaktikada psixolog, ijtimoiy xodimlar ishtiroki nazarda tutilmagan yoki cheklangan;

mahalla va jamoatchilik ishtirokining huquqiy asosi aniq emas, ya'ni, qonun mahalliy darajadagi profilaktika ishlarining huquqiy mexanizmlarini to'liq belgilamagan;

huquqiy atamalar amaliyotda turlicha talqin qilinadi, masalan, "qarovsizlik", "nazoratsizlik", "g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar"ning aniq mezonlari yo'qligi huquqni qo'llashda turli xulosalarga olib keladi;

qonunning ijro etilishini ta'minlovchi institutsional baza yetarlicha kuchli emas, masalan, bolalar komissiyalari yoki profilaktika markazlarining vakolatlari, hisobot berish va mas'uliyat tizimi aniq belgilanmagan.

Takliflar:

qonunda "nazoratsizlik" va "qarovsizlik" holatlarini aniqlashning standart mezonlari va baholash indikatorlarini joriy etish;

profilaktika organlarining hamkorligini ta'minlash uchun "Yagona bola monitoringi axborot tizimi"ni yaratish;

profilaktika ishlarida psixolog va ijtimoiy pedagog ishtirokini majburiy tartibda belgilash;

qonunga kiber huquqbuzarlik va internet xavflari bo'yicha profilaktika tadbirlarini kiritish;

nazoratsizlik holatlari bo'yicha fuqarolarning xabar berish majburiyatini (Germaniya va Fransiya tajribasidagi kabi) huquqiy asosda belgilash.

7) O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunining tahlili.

Amaldagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishda huquqiy asos sifatida muhim ahamiyatga ega. Unda profilaktika faoliyatini tashkil etish, vakolatli organlar vazifalari va ularning hamkorlik mexanizmlari belgilangan. Biroq qonun normalarining amalga oshirilishida qator muammolar mavjud[8].

Jumladan:

profilaktika ishlarini muvofiqlashtirishda mas'ul organlar o'rtasidagi hamkorlik tizimi yetarlicha samarali emas;

viktimologik profilaktika yo'nalishida aniq me'yoriy asoslar va amaliy usullar ishlab chiqilmagan;

ta'lim, sog'liqni saqlash, oila va yoshlar siyosati sohalaridagi profilaktika vazifalari umumiy tizim bilan yetarlicha uyg'unlashmagan;

qonun ijrosi samaradorligini baholash mexanizmi mavjud emas yoki formal tusda;

profilaktika tadbirlarida aholi va fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki past darajada.

Xulosa. Shu sababli qonunning amaliy ahamiyatini oshirish uchun vakolatli organlar o'rtasidagi institutsional muvofiqlashuvni kuchaytirish, viktimologik profilaktika sohasida ilmiy va metodologik asoslar yaratish, hamda ijtimoiy sohalar bilan integratsiyalashgan yagona profilaktika tizimini shakllantirish zarur. Quyida qonunning amaldagi muammolarini bartaraf etish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha *takliflar*:

huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi soha va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish tizimini takomillashtirish zarur, buning uchun qonunga "Profilaktika faoliyatini idoralararo muvofiqlashtirish tartibi"ga oid modda kiritilishi va har bir sohaning (ichki ishlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat, oila, yoshlar siyosati va boshqalar) vakolat va vazifalari aniq belgilanishi lozim;

qonunda jabrlanuvchilik (viktimlik) omillarini bartaraf etish, jabrlanuvchiga psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish, xavf guruhlarini aniqlash mexanizmlarini huquqiy jihatdan belgilash taklif etiladi;

ta'lim, sog'liqni saqlash, oila va mehnat sohalarida amalga oshirilayotgan profilaktika ishlari yagona milliy tizim doirasida muvofiqlashtirilishi lozim. Bu maqsadda "Soha muassasalarida huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish" nomli yangi modda kiritilishi maqsadga muvofiq;

har bir profilaktika dasturi yoki chora-tadbirining natijadorligi bo'yicha indikatorlar (masalan, huquqbuzarliklar sonining kamayishi, aholi xabardorlik darajasi, xavf guruhlarining soni va h.k.) joriy etilishi lozim;

nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va OAVning huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasidagi roli qonun darajasida mustahkamlanishi zarur;

ichki ishlar organlari, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy soha xodimlari uchun maxsus viktimologik va profilaktika bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini joriy etish maqsadga muvofiq;

axborot texnologiyalari asosida yagona profilaktika ma'lumotlar bazasini yaratish orqali xavf guruhlarini, jabrlanuvchilarni, profilaktik tadbirlar natijalari haqidagi ma'lumotlarni integratsiyalashgan holda tahlil qilinishi mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/1685726>
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. <https://www.lex.uz/acts/104720>.
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. <https://www.lex.uz/acts/97664>
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://www.lex.uz/acts/111453>.
5. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/3026246?ONDATE2=26.01.2022&action=compare>
6. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/1297315>
7. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/1297315>.
8. O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/docs/1297315>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).